

ISSN: 2181-9416



ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

ҲУҚУҚИЙ, ИЖТИМОИЙ, ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

ISSN 2181-9416
Doi Journal 10.26739/2181-9416

ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ

4 СОН, 3 ЖИЛД

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 4, ВЫПУСК 3

LAWYER HERALD

VOLUME 4, ISSUE 3



TOSHKENT-2023

Мундарижа

ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ

1. ВАКНРАМОВА Mokhinur LEGAL ANALYSIS OF METHODS OF REALIZATION OF PROPERTY RIGHTS BY AUTHORS AND PRACTICE OF LAW ENFORCEMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	8
2. TURDIEV Bobir Sobirovich KORPORATIV SEKTORNING EKOLOGIK MAS'ULIYATINI OSHIRISHNING HUQUQIY MEKANIZMLARI	14
3. ҲАМДАМОВ Шаҳзод Мақсуд ўғли РАҚАМЛАШТИРИШ ТУШУНЧАСИ, МАЗМУН-МОҲИАТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ	23

СУД ҲОКИМИЯТИ. ПРОКУРОР НАЗОРАТИ. ҲУҚУҚНИ МУҲОҒАЗА ҚИЛИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

4. ПАНАБЕРГЕНОВА Жамиля Таировна ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДОПРОИЗВОДСТВЕ	30
5. JUMAYEV Shohjahan Begimqul o'g'li QONUNLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR TEKSHIRUVLARINI O'TKAZISH ASOSLARI VA ULARNI QONUN HUIJATLARIDA TARTIBGA SOLISHNING DOLZARB MASALALARI.....	36

ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИ, ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ. КРИМИНОЛОГИЯ. ЖИНОЯТ-ИЖРОИЯ ҲУҚУҚИ

6. ОТАЖОНОВ Абдоржон Анварович, НОРМАНОВА Клара Эшназаровна ЖИНОЯТНИ ТАШКИЛ ЭТГАН ЁКИ РАҲБАРЛИК ҚИЛГАН ШАХС ҚИЛМИШИНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ.....	43
7. КАРИМОВ Ифтихор Ибрагимович ЭКСТРЕМИЗМ ТУШУНЧАСИ, ШАКЛЛАРИ ВА МОҲИАТИ: ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ ..	52
8. SHUKUROVA Muhayyo Mukumjanovna НОКИМИЯТ НАРАКАТСИЗЛИГИ UCHUN JAVOBGARLIK MUAMMOLARIGA DOIR ILMIY TADQIQOTLARNING ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISHI	61

ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИ. КРИМИНАЛИСТИКА. ТЕЗКОР-ҚИДИРУВ ҲУҚУҚ ВА СУД ЭКСПЕРТИЗАСИ

9. БОЗОРОВ Мақсудали Махмудович ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА ПРОЦЕССУАЛ ЧИҚИМЛАРНИ УНДИРИШ, ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ БИЛАН ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ.....	66
---	----

ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ ВА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ

10. TILLABAYEV Mirzatillo

THE UNIVERSAL DECLARATION OF HUMAN RIGHTS: HISTORICAL OVERVIEW AND IMPLEMENTATION IN UZBEKISTAN..... 74

11. ФАЙЗУЛЛАЕВА Нигорахон Равшановна

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВАЯ СИСТЕМА ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ НЕЗАКОННОГО ОБОРОТА КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В МЕЖДУНАРОДНОМ КУЛЬТУРНОМ ПРАВЕ..... 80

12. САФАРОВА Шахло Пулатовна

ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ БЎЙИЧА ТАЪЛИМНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ ШАРТНОМАВИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАНБАЛАРИ 89

13. ЕСЕМУРАТОВ Алишер Избасарович

ПРИЧИНЫ, ТЕНДЕНЦИИ И ПРОТИВОДЕЙСТВИЕ НЕЗАКОННОЙ МИГРАЦИИ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ..... 96

14. ХАМЗАЕВ Дилавер

РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В БОРЬБЕ С ТРАНСНАЦИОНАЛЬНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ПРЕСТУПЛЕНИЯМИ 102

ҲУҚУҚИЙ АМАЛИЁТ ВА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА

15. РАХМАНОВ Шухрат Наимович, ХАМДАМОВА Фируза Уразалиевна

МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА НА ЦИФРОВУЮ ЭКОНОМИКУ 113

16. SUFIEVA Dilafruz

ABOUT QUALITATIVE CHANGES IN THE RULE-MAKING PROCESS.....120

17. САФАРОВ Темур Уктамович

АНАЛИЗ ВНЕШНЕГО И ВНУТРЕННЕГО КОНТЕКСТА ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ НАЛИЧИЯ УСЛОВИЙ ДЛЯ КОРРУПЦИИ В ГОСУДАРСТВЕННОМ СЕКТОРЕ125

ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ ВЕСТНИК ЮРИСТА LAWYER HERALD

JUMAYEV Shohjahon Begimqul o'g'li

Yuristlar malakasini oshirish markazi katta o'qituvchisi,
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
tayanch doktoranti (PhD)
E-mail: Shohjahon7474@gmail.com

QONUNLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR TEKSHIRUVLARINI O'TKAZISH ASOSLARI VA ULARNI QONUN HUJJATLARIDA TARTIBGA SOLISHNING DOLZARB MASALALARI

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): JUMAYEV Sh.B. Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini o'tkazish asoslari va ularni qonun hujjatlarida tartibga solishning dolzarb masalalari // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2023) B. 36-42.



4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2023-4-5>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshruvlari, ularning o'ziga xos jihatlari hamda ushbu tekshiruvlarni o'tkazish asoslari, prokuror nazorati hujjatlariga javob berish va ularning natijalari haqida so'z borgan. O'tkazilgan prokuror tekshiruvlariga doir rasmiy statistik ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ilgari surilgan prokuratura organlari faoliyati borasidagi istiqbolda ko'zda tutilgan vazifalar yoritilgan. Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshruvlari o'tkazish asoslari hamda ahamiyati qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. Tekshiruv asoslari: tarmoq ish rejaları, rahbariyat ko'rsatmalari, hay'at qarorlari, jismoniy yuridik shaxslarning murojaatlari, ommaviy axborot vositalari xabarları, qonunbuzilishi haqidagi ma'lumotlar tahliliy o'rganilgan. Bir qator xorijiy davlatlarning tajribasi milliy qonunchiligimiz bilan qiyosiy tahlil qilingan hamda takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: prokuror tekshiruvi, tekshiruv o'tkazish asoslari, qonunlar ijrosi, murojaat, profilaktika, huquqbuzarlik, strategiya.

ЖУМАЕВ Шохжахон

Старший преподаватель Центра повышения квалификации юристов,
Докторант (PhD) Правоохранительной академии Республики Узбекистан
E-mail: Shohjahon7474@gmail.com

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ОСНОВАНИЯ ПРОВЕДЕНИЯ ПРОКУРОРСКИХ ПРОВЕРОК ИСПОЛНЕНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ЕЕ ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются прокурорская проверка исполнения законов, их специфика, а также основания для ее проведения, реакция на документы прокурорского надзора и их результаты. Приведена официальная статистика проведенных прокурорских проверок. Освящены задачи Стратегии развития Нового Узбекистана, поставленные

в отношении деятельности органов прокуратуры,. Проведен сравнительно-правовой анализ оснований и значимости прокурорских проверок исполнения законов. Основы проверки: аналитически изучены отраслевые планы работы, указания руководства, решения Коллегии, обращения физических юридических лиц, сообщения СМИ, информация о нарушениях. Был проведен сравнительный анализ опыта ряда зарубежных стран с национальным законодательством и выдвинуты предложения.

Ключевые слова: прокурорская проверка, основы проведения проверок, исполнение законов, апелляция, профилактика, правонарушения, стратегия.

DJUMAYEV Shokhjakhon

Senior Lecturer at the Lawyers' Training Center,

Doctoral student (PhD) of the

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

E-mail: Shohjahon7474@gmail.com

FUNDAMENTALS OF CONDUCTING PROSECUTOR'S CHECKS ON THE IMPLEMENTATION OF LAWS AND CURRENT ISSUES OF THEIR REGULATION IN LEGISLATION

ANNOTATION

In this article, the prosecutor's arguments over the implementation of the laws, their specifics and the basics of conducting these investigations, responding to the documents of the prosecutor's supervision and the results of their investigation were discussed. Official statistics on the prosecutor's investigations carried out were cited. In the development strategy of the new Uzbekistan, the tasks envisaged in the prospects for the activities of the prosecutor's office are highlighted. Comparative-legal analysis of the basics and significance of conducting prosecutor's actions on the implementation of laws. The basis of the examination: network work plans, leadership instructions, jury decisions, appeals of natural legal entities, media reports, information about violations are studied analytically. The experience of a number of foreign countries has been comparative analyzed with our national legislation and proposals have been put forward.

Keywords: prosecutor's verification, grounds for conducting a verification, enforcement of laws, appeal, prevention, violation, strategy.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishda Respublikamizda prokuratura organlari tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan samarali nazorat o'rnatilishi hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biridir.

Yurtimizda davlat boshqaruvini takomillashtirish, aholining turmush darajasi va hayot farovonligini oshirish, hududlarni har tomonlama rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining samarali ro'yobga chiqarilishi – mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan qonun hujjatlarini so'zsiz ijro etish uchun prokuratura organlarining kuch va imkoniyatlarini to'liq safarbar qilishni taqozo etdi.

Shu kabi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" da 100 ta maqsad belgilab qo'yilgan bo'lib, uning 17-maqsadi prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirishga bag'ishlangan va unda qonuniylikni qat'iy ta'minlovchi, ochiq va adolatli prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish hamda "Qonun – ustuvor, jazo – muqarrar" tamoyilini bosh mezoniga aylantirish vazifasi qo'yilgan [1].

“Keyingi yillarda O‘zbekistonda qonun ustuvorligini ta‘minlash, sud-huquq tizimini, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning ishonchli mexanizmiga aylantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Bunda, ayniqsa, prokuratura organlari tomonidan davlat tashkilotlari faoliyatida suiiste‘molchilik va boshqa qonunbuzilishlarining sabablarini aniqlab, bartaraf etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda” [2].

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori Nig‘matilla Yo‘ldoshevning prokuratura organlari tomonidan 2020-yilda amlaga oshirilgan ishlar bo‘yicha Oliy Majlis Senati 14-yalpi majlisidagi hisobotida O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tashabbusi bilan 2020-yil davomida prokuratura sektorlarida yashovchi 200 mingga yaqin oilalarga har tomonlama ko‘mak berilganligi, 160 mingga yaqin fuqarolar muqim ishlarga joylashtirilganligi, natijada temir daftarga kiritilgan oilalarning qariyb 126 mingtasi yoki ularning 84 foizi mahalliy kengashlar qarorlari asosida ehtiyojmandlar ro‘yxatidan chiqarilganligi, xotin-qizlar va yoshlar huquqlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalari doimiy e‘tiborda ekanligi hamda og‘ir vaziyatga tushib qolgan 1231 nafar ayollarga uy-joy ajratilishida va qariyb 100 mingga yaqin xotin-qizlarning ishga joylashishida amaliy yordam berilganligi, iqtisodiy sohada esa 5200 nafar tadbirkorning buzilgan huquqlari tiklanib, 23 mingdan ziyod tadbirkor, jumladan 2300 nafar eksportyorning muammolarini hal qilishda ko‘maklashilganligi ta‘kidlandi [3].

Shuningdek, o‘tgan davr mobaynida huquqni qo‘llash holatini kompleks tahlil qilish, qonunbuzilishlar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini o‘z vaqtida bartaraf etish choralari ko‘rish, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasini ta‘minlash, tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashda o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazilgan prokuror tekshiruvlari muhim rol o‘ynadi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni 1-moddasiga muvofiq, prokuratura organlari O‘zbekiston Respublikasida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatadi. Mazkur Qonunning 2-moddasiga ko‘ra esa, O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta‘minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iboratdir. Ushbu vazifalarni samarali hamda salmoqli amalga oshirish maqsadida sifatli prokuror tekshiruvlarini o‘tkazishning ahamiyati juda ham kattadir.

Huquqshunos olim B.X.Po‘latov ham, “O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarida ish Bosh prokurorning sohaviy buyruqlari bilan ham tashkil etiladi. Ular O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuniga va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga asoslanadi”, deb qayd etgan.

Huquqshunos D.Belousova ta‘kidlaganidek, prokuror tekshiruvlari qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini o‘rnatish va qonunbuzilishlarini aniqlashning muhim instrumenti hisoblanadi [4].

Prokuror tekshiruvlari “umumiy nazorat” faoliyatining majburiy belgisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Fikrimizcha, prokuror tekshiruvi, faqatgina qonunbuzilish holatlarini aniqlashninggina muhim belgisi emas. Sababi prokuror tekshiruvi natijasida nafaqat qonunbuzilishi *aniqlanadi*, balki tegishli prokuror nazorati hujjatlari orqali uni *bartaraf etish* choralari ham ko‘riladi. Misol uchun, prokuror qurilish sohasidagi qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvini o‘tkazishni boshlab, tegishli bilimga ega bo‘lgan mutaxassislarni tuman tibbiyot birlashmasidagi qurilish-ta‘mirlash ishlarining sifati, unga davlat budjeti tomonidan ajratilgan mablag‘lar hamda uning amalda sarflanish darajalarini aniqlash uchun jalb etadi va bu orqali qonunbuzilishlarini aniqlaydi.

Huquqshunos olim N.R.Koreshnikova ta‘kidlab o‘tganidek, prokuror tekshiruvlari bir tomondan vakolatli mansabdor shaxslarning harakatlarini baholash, qonunbuzilishini hamda ularning *ustav hujjatlarida aks etgan vakolatlariga aloqador* ravishda sodir etilgan huquqbuzarliklarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Shu kabi ayrim mualliflar fikricha, prokuror tekshiruvi qonunlar ijrosi ustidan prokuror

nazorati paytida qo'llaniladigan qoida buzilishini aniqlash *vositasidir* [5].

Ta'kidlash joizki, "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasi aynan qonunlar ijrosi bo'yicha prokuror tekshiruvlariga bag'ishlangan bo'lib, unga asosan, qonunlar ijrosini tekshirish qonunlarning buzilayotganligi to'g'risidagi arizalar va boshqa ma'lumotlar asosida, shuningdek qonuniylik prokuror tomonidan choralar ko'rilishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqqan holda qonunda belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Yuqorida qonunlar ijrosi bo'yicha prokuror tekshiruvlariga bag'ishlangan moddada belgilab qo'yilgan normalar tor doirada ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni unda prokuror tekshiruvlarini o'tkazish uchun asoslar to'la va qat'iy tartibda aks ettirilmagan. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yil 5-dekabrda "Ishlarni tashkillashtirish, ijro intizomini yanada mustahkamlash va tahliliy faoliyat samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 172-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan namunaviy reglamentda prokuror tekshiruvlarini o'tkazishning qat'iy asoslari belgilab qo'yilgan. Unga muvofiq, quyidagi asoslar bo'lganda qonunlar ijrosi bo'yicha prokuror tekshiruvlari o'tkazilishi mumkin:

Tarkibiy tarmoqlar ish rejalari;

Hay'at qarorlari;

Rahbariyat ko'rsatmalari;

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari;

Qonunbuzilishi haqidagi ma'lumotlar;

Ommaviy-axborot vositalarining xabarlari.

Yuqorida keltirilgan prokuror tekshiruvlarini o'tkazish asoslarining mazmunini tushunib olish uchun ularning har biriga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Tarkibiy tarmoq ish rejalari. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining "Ishlarni tashkillashtirish, ijro intizomini yanada mustahkamlash va tahliliy faoliyat samaradorligini oshirish to'g'risida"gi buyrug'i bilan tasdiqlangan *Namunaviy Reglament talabiga asosan*, Bosh prokuratura ish rejalari qonuniylik ahvoli jinoyatchilik tahlili asosida har olti oyga mo'ljallangan holda tuziladi.

Bosh prokuratura ish rejasining loyihasi tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi tomonidan tarkibiy tarmoqlar, Departament va Byuroning takliflari asosida tayyorlanadi.

Ish rejalarga takliflar Bosh prokuror o'rinbosarlari bilan kelishilgan va asoslantirilgan bo'lishi unda tadbirlar ijrosiga mas'ul va ishtirok etishi lozim bo'lgan tarkibiy tarmoqlar, tadbirning ijro muddati, natijasini amalga oshirish shakllari va boshqa zarur ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim.

Hay'at qarorlari. "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 19-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori (rais), uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, prokuratura organlarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Hay'atning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi [6].

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasida, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda tuziladigan hay'atlar maslahat organlari bo'lib, ular qonuniylik va jinoyatchilikning holatiga, prokuratura organlarining faoliyatiga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori buyruqlari va ko'rsatmalarining ijrosiga, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yishga doir va boshqa masalalarni ko'rib chiqadi, prokurorlarning, prokuratura organlari tuzilmaviy bo'linmalari rahbarlarining va boshqa xodimlarining hisobotlarini eshitadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining tegishli buyrug'i bilan tasdiqlangan *Namunaviy Reglamentning 20.8-bandiga asosan*, hay'at qarori loyihasida ko'rilayotgan masala bo'yicha tahlil, asosiy xulosalar, aniqlangan qonunbuzilishi holatlari va kamchiliklarni bartaraf etish, huquqni qo'llash amaliyoti va prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan takliflar aks ettiriladi. Mazkur reglamentning 20.15-bandiga muvofiq, hay'at muhokamasi yakuni bo'yicha hay'at a'zolari tomonidan hay'at qarori loyihasiga fikr bildiriladi. Ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan hay'at qarori ko'pchilik ovozi bilan, yakuniy qaror esa tegishli hay'at majlisida raislik qiluvchi tomonidan qabul qilinadi.

Zarur hollarda hay'at qaroriga muvofiq tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlar

tayyorlanadi va Bosh prokuratura rahbariyatiga imzolash uchun taqdim etiladi. Shuningdek, reglamentning 20.18-bandiga binoan, hay'at qaroridan kelib chiqadigan vazifalar tezkor yig'ilishlarda muhokama qilinib, natijasiga ko'ra, xodimlarning vazifalari belgilanadi, zarur hollarda, tegishli chora-tadbirlar Dasturi ishlab chiqiladi va ijrosi ustidan nazorat ta'minlanadi.

Demak, hay'at qarori asosida prokuror tekshiruvlari o'tkazilganda ham, uning ijrosi ustidan yuqori turuvchi prokuratura tomonidan nazorat ta'minlanadi. Jumladan, hay'at majlisi qarori va shu asosda qabul qilingan tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlarni belgilangan muddatda, to'liq va sifatli ijro etish yuzasidan mas'uliyat Bosh prokurorning sohaviy o'rinbosarlari, tarkibiy tarmoqlar, Departament boshliqlari va Byuro direktori, viloyat prokurorlari zimmasiga yuklatiladi.

Rahbariyat ko'rsatmalari. Bosh prokuraturada xizmatda foydalaniladigan hujjatlar, qoida tariqasida, quyidagi turlarga bo'linadi:

- tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlar;
- ijrosi barcha prokuratura, Departament va Byuro organlari uchun umummajburiy bo'lgan hujjatlar (keyingi matnda - ijrosi barcha prokuratura organlari uchun umummajburiy bo'lgan hujjatlar);

- axborot-uslubiy va tahliliy xususiyatidagi hujjatlar;

- yozishma hujjatlar.

Tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlar toifasiga:

- Bosh prokurorning buyruq, **ko'rsatma** va farmoyishlari;
- Bosh prokurorning buyrug'i bilan tasdiqlangan reglament, nizomlar, yo'riqnomalar, tartiblar, vaqtincha tartiblar, kasb odobnomasi, prokuratura organlari oldiga qo'yilgan asosiy vazifa va funksiyalarni amalga oshirish tartibini belgilovchi boshqa hujjatlar;
- huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat va boshqa davlat organlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan qo'shma buyruq, farmoyish, **ko'rsatma** va boshqa hujjatlar kiritiladi.

Bundan tashqari, ijrosi barcha prokuratura organlari uchun umummajburiy bo'lgan hujjatlar toifasiga Bosh prokuror yoki uning o'rinbosarlari tomonidan imzolangan:

- muayyan masala bo'yicha aniq talablar qo'yilgan, bajarish shakli va axborot berish muddati qayd qilingan topshiriq yoki **ko'rsatma** ham kiradi.

Demak, yuqoridagilarga asoslangan holda aytish mumkinki, prokuror tekshiruvini o'tkazishga asos bo'ladigan *rahbariyat ko'rsatmalari* tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjat yoki umummajburiy bo'lgan hujjat sifatida qabul qilinadi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyrug'i bilan tasdiqlangan "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish va ularning shaxsiy qabulini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomaning 1.3-bandiga ko'ra, *murojaat* jismoniy va yuridik shaxslarning og'zaki, yozma yoxud elektron shaklda bayon etilgan individual yoki jamoaviy arizasi, taklifi yoki shikoyati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi O'RQ-445-sonli "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasiga ko'ra, arizalar, takliflar va shikoyatlar murojaatlarning turlari hisoblanadi. Shuningdek, murojaatlar og'zaki, yozma yoxud elektron shaklda bo'lishi mumkin ekanligi qayd etilgan [7].

Qonunbuzilishi haqidagi ma'lumotlar. Mansabdor shaxslar, fuqarolar, korxonalar, muassasa yoki tashkilotlarning yozma, rasm, audio, video yoki boshqa ko'rinishdagi, qonunbuzilishi holatlari to'g'risida muayyan faktik holatlarni tasdiqlovchi asoslar qonunbuzilishi haqidagi ma'lumotlar hisoblanishi mumkin.

Ommaviy-axborot vositalarining xabarlari. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 15-yanvardagi O'RQ-78-sonli "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasiga asosan, ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, Internet jahon axborot tarmog'idagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan (bundan buyon matnda chiqariladigan deb yuritiladi), qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir. Mazkur vositalar

tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi buzilganligi va (yoki) buzilayotganligi to'g'risidagi prokuror tekshiruvini o'tkazishga asos bo'ladigan axborot yoki bildirish yuqoridagi buyruqda nazarda tutilgan ommaviy-axborot vositalarining xabarlarididir.

Mazkur asoslarning qonun hujjatlarida belgilab qo'yilmagani ham, prokuror tekshiruvlarini qonun hujjatlarida aks ettirishning muammolaridan biri sanaladi. Boisi, prokuror tekshiruvlari qonun buzilishlarini aniqlash hamda ularni o'z vaqtida bartaraf etishda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etishini inobatga oladigan bo'lsak, uni o'tkazish bilan bog'liq barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunida aks ettirilishi lozim deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni 9-moddasida O'zbekiston Respublikasining qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi belgilangan. Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini o'tkazish asoslari bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni ham, muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlar deb hisoblagan holda prokuror tekshiruvlarini o'tkazishning to'la va qat'iy asoslari "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasida belgilab qo'yilishi joiz, degan fikrdamiz.

Shuningdek, "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasida prokuratura organlari o'tkazgan tekshiruv bo'yicha kiritilgan prokuror nazorati hujjatlariga tekshiruv obyektlari tomonidan javob berishning aniq tartibi va muddatlari belgilanmagan. Bu esa qonunbuzilish holatlarini bartaraf etishdek prokuror tekshiruvdan ko'zlangan maqsadga putur yetkazishi mumkin.

Prokuror tekshiruvlari bo'yicha boshqa xorijiy davlatlar tajribasiga ham quyida e'tibor qaratib o'tamiz. Rossiya Federatsiyasining 1992-yil 17-yanvarda qabul qilingan 2202-I-sonli "Prokuratura idoralari to'g'risida"gi Qonuni 21-moddasiga ko'ra, Rossiya Federatsiyasi hududidagi federal vazirliklar, davlat qo'mitalari, xizmatlar va boshqalar tomonidan federal ijroiya organlari, davlat hokimiyatining vakillik (qonun chiqaruvchi) va ijro etuvchi organlari Rossiya Federatsiyasining ta'sis subyektlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, harbiy boshqaruv organlari, nazorat organlari, shuningdek ularning mansabdor shaxslari, tijorat va notijorat tashkilotlarning boshqaruv organlari va rahbarlari tomonidan Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga rioya qilish va amaldagi qonunlarning bajarilishi qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati predmeti hisoblanadi [8].

Ushbu qonunning 21-moddasi, ikkinchi qismiga ko'ra, prokurorning qonunlar ijrosi ustidan nazorat tekshirishi *qonun buzilishi haqidagi ma'lumotlar asosida* hamda qonuniylik prokuror tomonidan chora ko'rilishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqib amalga oshirilishi belgilangan. Shuningdek, prokuror tekshiruvlarini o'tkazishga internet axborot-kommunikatsiya tarmog'ida joylashtirilgan ma'lumotlar, federal davlat axborot tizimlari ma'lumotlari, uchuvchisiz havo vositalari yordamida olingan ma'lumotlar va aerofotosuratlar ham asos bo'lishi belgilangan. *Ammo milliy qonunchiligimizda belgilangan prokuror tekshiruvi uchun asoslar qatorida bular mavjud emas.*

Axborotlarning asosiy qismi zamonaviy texnologiya vositalari yordamida almashiladigan bugungi dunyoda prokuror tekshiruvlarini o'tkazishga asoslar qatorida internet axborot-kommunikatsiya tarmog'ida joylashtirilgan xabarlar hamda uchuvchisiz havo vositalari yordamida olingan ma'lumotlar ham bo'lishi lozim, deb hisoblaymiz. Shu bois, "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasida qayd etilgan prokuror tekshiruvini o'tkazishga asoslar jumlasiga yuqoridagi asoslar ham kiritilsa, prokuror tekshiruvlarini o'tkazish yanada takomillashgan hamda huquqbuzarliklar va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar o'z vaqtida bartaraf etilgan bo'lar edi.

Shu bilan bir qatorda, Rossiya Federatsiyasining "Prokuratura idoralari to'g'risida"gi qonuni 22-moddasida prokuror muayyan tekshirish obyektiga tekshirish uchun borganda, rioya qilishi lozim bo'lgan qoidalar ham belgilab o'tilgan. Misol uchun, hududlarga to'siqsiz kirish uchun prokuratura xodimi o'zini tanishtirishi va xizmat guvohnomasini ko'rsatishi lozimligi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunining qonunlar ijrosi

yuzasidan tekshirishga aloqador bo'lgan III bo'lim, 21 – 22-moddalarida mazkur qoidalar ko'rsatib o'tilmagan bo'lib, bunday qoidalar alohida ichki hujjatlar bilan tartibga solingan.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, keltirib o'tilgan xorij tajribasi va Bosh prokuror buyrug'ini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 21-moddasida prokuror tekshiruvlarini o'tkazishning aniq va to'la asoslarini belgilash hamda tekshirish natijalariga oid prokuror nazorati hujjatlariga tekshirish obyekti tomonidan javob berishning qat'iy tartibi mustahkamlanishi lozim, deb hisoblaymiz.

Иқтибослар/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>;

2. Fayziyev. J. Qonun hujjatlari ijrosi prokuratura organlarining doimiy nazoratida. Huquq va burch. 2014-y.11-son;

3. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori Nig'matilla Yo'ldoshevning prokuratura organlari tomonidan 2020-yilda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Oliy Majlis Senati 14-yalpi majlisidagi hisobotidan. 2021-yil, 23-aprel // URL: <https://prokuratura.uz>;

4. Белоусова Д.С. Дальнейшая процессуализация прокурорской проверки: блажь или необходимость? 2019.

5. Качалов В.И., Качалов О.И. Прокурорский надзор в Российской Федерации. М.: Норма, 2001.

6. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi "Prokuratura to'g'risida"gi (yangi tahrirda) Qonuni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-106197>;

7. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentyabrda qabul qilingan "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'RQ-445-sonli Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-3336169>;

8. Rossiya Federatsiyasining 1992-yil 17-yanvardagi "Prokuratura idoralari to'g'risida"gi Qonuni // URL: https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/rus_e/wtaccrus58_leg_83.pdf;